

## ABDULLA QAHHORNING “DAHSHAT” HIKOYASI BADIY TAHLILI

*Abdullayeva Ro‘zibuvi Lutfullayevna**Samarqand Davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Abdulla Qahhor o'zbek hikoyachiligini zamonaviy jahon hikoyachiligi darajasiga ko'tardi va o'zbek realistik hikoyachiligining asoschisi degan nom oldi. Uning hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishonirish kuchi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo'lib o'tgan voqea, real hayotning bir bo'lagi, epizodi bo'lib gavgdalanadi. Hikoyalarning ko'pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o'zi ko'rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan. Biroq ular hayotning aynan nusxasi emas. [Asror bobo, 2-bet]. “Agar yozuvchilik turmushdan nusxa ko'chirishdan iborat bo'lsa, dunyoda bundan oson ish bo'lmas edi. Hayotdan aynan ko'chirish kitobdan ko'chirishday gap. Nusxa nusxa bo'lib qolaveradi. Bundan narsalardan originallik kutib bo'lmaydi. Originallik hayot haqiqatini dildan o'tkazish, uni his qilish, unga o'ylab yurgan gaplarni singdirish, tilaklaringni qo'shib ifodalash bilan yuzaga keladi”- deydi Abdulla Qahhor. Shu kabi “Dahshat” hikoyasi ham o'zining kuchli badiiy tasviri bilan ajralib turadi. Asarda xotin-qizlarning o'tmishdagi og'ir turmushi, ularning taqdiri va ruhiy kechinmalari ta'sirchan ifodalangan. Hikoya nomining o'ziyoq o'quvchini o'ziga jalb etib, asar voqealariga qiziqish uyg'otadi.

**Kalit so'zlar:** qumg'on, dodho, kundoshlar, dodhoning maymuni, go'riston, Ganjiravon, paranji-chimmat.

## ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ РАССКАЗА

## АБДУЛЛЫ КАХХАРА «УЖАС»

---

Студентка 2 курса Самаркандского государственного педагогического института Абдуллаевой Рузибуви Лутфуллаевна.

**Аннотация:** Абдулла Каххар поднял узбекское рассказоведение до уровня современной мировой новеллистики и получил признание как основоположник узбекского реалистического рассказа. Его рассказы, прежде всего, поражают своей искренностью и силой убеждения. Всё изображённое писателем воспринимается как жизненное явление, реально произошедшее событие, эпизод из настоящей жизни. Большинство рассказов имеют реальную жизненную основу: они взяты из увиденных и услышанных писателем событий, а также из жизни знакомых ему людей. Однако они не являются точной копией жизни. [Asror bobo, c. 2]. «Если бы писательство заключалось только в копировании жизни, то не было бы дела легче этого. Копировать жизнь — всё

равно что переписывать книгу. Копия всегда остаётся копией. От этого нельзя ожидать оригинальности. Оригинальность возникает тогда, когда жизненная правда проходит через сердце, осмысливается, соединяется с размышлениями и желаниями автора», — писал Абдулла Каххар.

Рассказ «Ужас» также выделяется своей сильной художественной выразительностью. В произведении ярко раскрыты тяжёлая судьба женщин прошлого, их жизненный путь и душевные переживания. Уже само название рассказа привлекает внимание читателя и вызывает интерес к происходящим событиям произведения.

**Ключевые слова:** кумгон, додхо, соперницы-жёны, обезьяна Додхо, кладбище, Ганжиравон, паранджа-чиммат.

### ARTISTIC ANALYSIS OF ABDULLAH QAHHOR'S STORY "DAHSHAT"

Abdullayeva Ro'zibuvı Lutfullayevna, 2nd-year student of  
Samarkand State Pedagogical Institute

**Annotation:** Abdullah Qahhor raised Uzbek short story writing to the level of modern world literature and earned recognition as the founder of Uzbek realistic storytelling. First of all, his stories amaze readers with their sincerity and persuasive power. Everything depicted by the writer appears as a real-life event, an actual occurrence, and a fragment of life itself. Most of his stories are based on real events taken from what the writer personally saw, heard, and observed in the lives of people around him. However, they are not exact copies of life. [Asror bobo, p. 2]. "If writing consisted only of copying life, there would be no easier work in the world. Copying life is similar to copying a book. A copy always remains a copy. Originality cannot emerge from this. Originality appears when the truth of life passes through the heart, is deeply felt, combined with thoughts, and expressed together with the writer's aspirations," said Abdullah Qahhor.

Likewise, the story "Dahshat" stands out with its strong artistic expression. The work vividly portrays the difficult lives of women in the past, their destinies, and their emotional experiences. Even the title of the story itself attracts the reader's attention and creates interest in the events described in the work.

**Keywords:** qumg'on, dodho, co-wives, Dodho's monkey, cemetery, Ganjiravon, paranji-chimmat.

Dahshat hikoyasi o'tmishdagi ayollar hayoti, ularning erksizligi hamda jamiyatdagi adolatsizliklarni yorituvchi muhim asarlardan biridir. Hikoyada voqealar Unsin obrazi orqali ochib beriladi. Unsin dodho xonadonidagi kundoshlardan biri bo'lib, og'ir turmush sharoitida yashaydi. U xonadondagi bosim, qo'rquv va

tahqirlarga duch keladi.

Asarda Olimbek dodhoning uyidagi muhit ayollarning qanchalik qaram ahvolda yashaganini ko'rsatadi. "Xotin-qizlarning burun zamonda ko'rgan kunini bilmaysizlar, qizlarim, aytgan bilan ishonmaysizlar" degan jumlar hikoyaning g'oyaviy mazmunini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu epigraf orqali muallif o'tmishda ayollar qanday og'ir va mashaqqatli hayot kechirganiga kitobxon e'tiborini qaratadi. Epigrafning o'ziyiq asarda tasvirlanadigan voqealarning oddiy maishiy holat emas, balki ayollar taqdiri bilan bog'liq fojeali manzaralar ekanini anglatadi. Hikoya boshida keltirilgan: "Olimbek dodhoning sakkiz xotini katta kundosh Nodirmohbegimning uyiga yig'ilib, sandal atrofida o'tirishar edi. Dodho har kecha taroveh namozidan keyin halqaga qolar edi, bu kecha erta qaytdi. Hamma to'zidi: xotinlardan biri uning sallasini oldi, biri chakmoniga qo'l uzatdi, biri mahsisini tortgani chog'landi... Kundoshlarning eng kichigi-bu dargohga tushganiga besh oygina bo'lgan kelinchak-ganjiravonlik Unsinoy chilim solib tutdi-"[Asror bobo,24-bet] tarzidagi tasvirlar asardagi oilaviy muhit va ayollarning ijtimoiy ahvolini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Ushbu parchadan ma'lum bo'ladiki, Olimbek dodhoning sakkiz nafar xotini bo'lib, ular uning oldida o'zlarini erkin tuta olmaydi. Dodho uyga kirishi bilan xotinlarning birdaniga xizmatga oshiqishi, uning har bir harakatiga e'tibor qaratishi va qo'rquv bilan munosabatda bo'lishi xonadondagi hukmronlik muhitini ko'rsatadi. Asardagi: "Dodho darchani zichlab yopib, joyiga o'tirib tasbeh o'girishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o'girayotgan bo'lsa ham, qulog'i guvillayotgan shamolda, xayoli go'ristonda edi: "Hozir go'riston qanaqa vahimali bo'lsa ekan..." -jumlasini orqali ham dodhoning qanchalik qo'rquq, xudbin inson ekanligi anglashiladi. Chunki u o'zi borishga jur'at etolmaydigan, dahshatli deb hisoblagan joyga yoshgina Unsinoyini yuboradi.

Gapdan gap chiqib, Nodirmohbegim bir voqeani aytib berdi:

-Bola edim. Rahmatli dadam gap yer edilar. Bir mehmonhona yigit... Mana shunaqa shamol kechasi ekan. "Hozir kim go'ristonga borib, Asqarponsotning go'riga pichoq sanchib keladi?" degan gap bo'libdi. Shunda bir kishi pichog'ini qinidan sug'urib: "Men sanchib kelaman",-debdi, bitta qo'ydan garov bog'lashib yo'lga tushibdi. Jo'ralari hali kutishar emish-yo'q, hali kutishar emish yo'q; tong otibdi, uyida ham yo'q emish; go'ristonga borib qarashsa, Asqarponsotning go'ri oldida o'lib yotgan emish! Bechora go'rga pichoq sanchganida etagini qo'shib sanchgan ekan, qaytay desa, etagidan birov tortganday bo'lgan-da..." [Asror bobo, 27-b].

Bu voqeni eshitib hammaning eti jivirlashib ketdi." Unsin shivirlab:

-O'lsin, nokas odam ekan, bitta qo'yni deb... Koshki, arziydigan narsa bo'lsa!..- dedi..." Hammasi shundan boshlanib ketdi. Negaki, dodho bu gapni eshitib qolgan edi. U:

"Obbo, tegirmonchining qizi!.. Bitta qo'yni nazarlari ilmaydi! Nechta qo'y bo'lsa,

arzir edi? Sen o'zing o'nta qo'y bersam, pichoq sanchib kelasanmi? Yuzta qo'y, davlatimning yarmini bersam, borasanmi?- dedi [Asror bobo, 26-b]. Lekin, Unsinga mol-mulk, davlat qiziq emasdi. Unga erkinlik bo'lsa yetardi. U hatto dodho javobini berish uchun go'ristonga borib choy damlab kelishga ham rozi bo'lgani o'quvchini chuqur o'ygaga toldiradi. Negaki, uning erki o'z qo'lida emasdi. Ushbu voqealar o'sha davrda ayollar qanchalik xo'rlangani, yoshgina qizlar hayoti hech kimni qiziqitirmagini ko'rsatadi. Unsinoy go'ristonga borganda ham, o'ziga o'zi "O'likning joni yo'q"- deya takrorlab, qo'rquvni yengishga urindi. Chunki, uning yashayotgan muhiti go'ristondanda qo'rqinchili edi.

Asardagi Nodirmohbegim obrazi mehribon, g'amxo'r ayol sifatida gavdalangan. U qo'lidan kelganda Unsinoyga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhorning Dahshat hikoyasi o'tmishdagi xotin-qizlar hayotining og'ir va fojeali jihatlarini yoritib bergan muhim asarlardan biridir. Asarda Unsinoy obrazi orqali ayollarning erksizligi, ruhiy bosim ostida yashashi hamda jamiyatdagi adolatsizliklar chuqur tasvirlangan. Hikoya davomida Unsinoyning boshidan kechirgan voqealari, uning ichki kechinmalari va yakunda fojeali qismatga duch kelishi ayollar taqdirining naqadar og'ir bo'lganini ko'rsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdulla Qahhor. "Asror bobo" /hikoyalar to'plami. "Adabiyotimizning so'nmas yulduzlari" turkumi-T.: "Oltin qalam", 2023.- 160 b.
2. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.- B.232
3. Qo'chqorov R. Men bilan munozara qilsangiz,-T. Ma'naviyat nashr. 1999.- B. 95